

VERBALIZATION OF OTHER PARTS OF SPEECH IN ENGLISH AND
KARAKALPAK LANGUAGESDilfuza Badirova
Karakalpak State University

Annotation: This article provides a scientific analysis of the verbalization process of words belonging to other parts of speech in English and Karakalpak.

This comparative analysis helps to deepen the understanding of both universal and language-specific mechanisms of word formation in English and Karakalpak.

Key words: verbalization, conversion, word formation, English language, Karakalpak language, agglutinative language, analytic language.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va qoraqalpoq tillarida boshqa soʻz turkumlarining feʼlga aylanish jarayoni – verbalizatsiyalanish hodisasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mazkur tahlil ingliz va qoraqalpoq tillarida soʻz yasallishining universal va tilga xos mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: verbalizatsiya, konversiya, soʻz yasallishi, ingliz tili, qoraqalpoq tili, agglutinatitv til, analitik til.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ процесса вербализации слов других частей речи в английском и каракалпакском языках. Данный сравнительный анализ способствует более глубокому пониманию универсальных и языково-специфических механизмов словообразования в английском и каракалпакском языках.

Ключевые слова: вербализация, конверсия, словообразование, английский язык, каракалпакский язык, агглютинативный язык, аналитический язык.

Til – insoniyat jamiyatining ajralmas qismi boʻlib, tafakkur mahsuli va madaniy merosning asosiy shakli hisoblanadi. Har bir til oʻziga xos grammatika, leksika va soʻz yasallish tizimiga ega. Til tizimi statik emas, balki doimiy rivojlanib, yangilanib boruvchi dinamik hodisadir. Bu rivojlanishda soʻz yasallishining turli usullari, jumladan, konversiya, abbreviatsiya, affiksatsiya va boshqalar muhim oʻrin tutadi.

Zamonaviy tilshunoslikda soʻz yasallishining til rivoji jarayonidagi oʻrni alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon til birliklarining funksional oʻzgarishini taʼminlaydi va leksik tarkibini boyitadi. Soʻz yasallish usullari orasida boshqa soʻz turkumlarining verbalizatsiyalanishi (yaʼni, boshqa soʻz turkumlariga mansub soʻzlarning feʼl maʼnosini olib, feʼl sifatida qoʻllanishi) oʻzining oʻziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu hodisa til tizimining ichki imkoniyatlari koʻrsatkichi boʻlib, soʻzlarning turli sintaktik va semantik funksiyalarda qoʻllanish qobiliyatini yuzaga keltiradi.

Ushbu tadqiqot ishida biz Ingliz va Qoraqalpoq tillarida boshqa soʻz turkumlarining verbalizatsiyalanishi hodisasini ilmiy asosda tahlil etishni maqsad qilganmiz. Bu ikki til oʻzlarining tipologik xususiyatlari bilan bir-biridan keskin farq qilsa-da (Ingliz tili analitik, Qoraqalpoq tili esa agglutinatitv til), ularda soʻzlarning funksional oʻzgarishi jamiyat va til talabiga muvofiq turli mexanizmlar orqali amalga oshadi. Tadqiqot davomida verbalizatsiyalanish hodisasining asosiy namunalari, uning morfemik, semantik va sintaktik xususiyatlari, shuningdek, ikki tildagi oʻxshashlik va farqli jihatlari qiyosiy tahlil etiladi. Bu

tahlil har ikki tildagi soʻz yasash jarayonlarining universal va tilga xos mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ingliz tilida ot soʻz turkumidan fe'l soʻz turkumi konversiya usuli orqali yaratilishi umumli hodisa boʻlib, har qanday ot fe'l xizmatida kelishi mumkin. Qoraqalpoq tilida esa otlardan fe'llar konversiya hodisasi orqali yaratilmaydi.

1-Jadval

Noun (Ot)	Verb (fe'l)
An air- havo	To air- havosini almashtirmoq
Breakfast-nonushta	To breakfast- nonushta qilmoq
Message-xabar, xat	Messaged- xabar,xat yo'llamoq
Name-nom, atama	To name- nomlamoq, atamoq
Schedule-jadval, raspisanie	Schedule- jadval tuzmoq
Work-ish	To work- mehnat qilmoq, ishlash
Word-soʻz	To word- sózlamoq

Misol: "Boys spent the night with Mr.Vaughan, and they **breakfasted** together in the usual way upon bacon and eggs, toast, marmalade and coffee" ("Strong Prison". D.S. 17-b); "He **emailed** her every day, telling her about his life in New York, his hopes and dreams, his fears and doubts" ("The Time Traveler's Wife" A.N. 281-b); "He **shaped** his hands into a cup and scooped up the water" ("Life of Pi" Y.M. 148-b);

Ingliz tilida sifat soʻz turkumidan fe'llar yaratiladi, ammo sifatlardan fe'l soʻz turkumini yaratish umumli usul emas. Bu jarayon, ya'ni sifatlarning fe'l soʻz turkumiga konversiya yo'li orqali o'tishi qoraqalpoq tilida uchramaydi. Shuning uchun, bu modelni o'rganish orqali ingliz va qoraqalpoq tillarining o'ziga xos farqlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

2-Jadval

Adjective (Klebetlik)	Verb (Fe'l)
Dirty-kir, iflos, chang	To dirty-iflos qilmoq
Dry-quruq	To dry-quritmoq
Tame- qo'lga o'rgatilgan	to tame- qo'lga o'rgatmoq
Clean- toza	to clean- tozalamoq
Pale- rangsiz, oqargan (odamning yuzining oqarishi)	to pale- oqarib ketmoq

Misol: "He **slowed** his horse to a trot and looked around, searching for a sign of the enemy" ("The Three Musketeers" A.D. 59-b).

Ushbu tadqiqot ishi davomida Ingliz va Qoraqalpoq tillarida boshqa soʻz turkumlarining verbalizatsiyalanishi hodisasi atroflicha o'rganilib, tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, verbalizatsiya har ikki tilda ham tilning leksik boyligini oshirish va uning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda muhim mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tilida verbalizatsiya, asosan, morfologik o'zgarishlarsiz, soʻzning kontekstual qo'llanishi va sintaktik pozitsiyasi orqali amalga oshadi. Otlar, sifatlar, hatto ayrim predloglar ham fe'l vazifasida kelib, aniq ma'no hosil qiladi (masalan, to book – "band qilmoq", to clean – "tozalamoq"). Bu analitik til tabiatining bevosita natijasidir.

Qoraqalpoq tilida esa verbalizatsiya, agglutinativ til xususiyatidan kelib chiqqan holda, ko'proq affiksatsiya (masalan, -la, -ay, -len kabi fe'l yasovchi qo'shimchalar) orqali yuzaga keladi. Ot va sifatlarga fe'l yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi bilan ular fe'l ma'nosini kasb etadi (masalan, suv

(ot) → suwla (fe'l), taza (sifat) → tazala (fe'l)). Shu bilan birga, frazal fe'llar shaklida va konversiya usulida, garchi Inglis tilidagidek keng miqyosda verbalizatsiya holatlari kuzatilmaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda verbalizatsiya tilning iqtisod qonuniga bo'ysunib, yangi so'zlar yaratishga va ma'nolarni ixcham ifodalashga intiladi. Biroq, bu jarayonlarning yuzaga kelish mexanizmlari, tilning morfologik tuzilishiga bog'liq ravishda, turlicha kechadi. Ingliz tilida so'z shaklining o'zgarishligi bilan birga funksional o'zgarish ustunlik qilsa, Qoraqalpoq tilida morfologik belgilarning, ya'ni fe'l yasovchi qo'shimchalarning mavjudligi asosiy rol o'ynaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslikning so'z yasalishi, leksikologiya va qiyosiy tilshunoslik yo'nalishlariga nazariy hissa qo'shadi. Shuningdek, u til o'rgatish metodikalarini takomillashtirish, ikki til o'rtasidagi tarjima jarayonlarini osonlashtirish va ikki tilli lug'atlarni boyitishda amaliy ahamiyatga ega. Kelajakda bu yo'nalishda chuqurroq, korpusga asoslangan tadqiqotlar o'tkazish verbalizatsiya hodisasining to'liqroq manzarasini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арбекова Т.И. Лексикология английского языка. – Москва: Высшая школа, 1977.
2. Аймурзаева Э. Конверсия ҳам полисемия усылы менен сөз-лердиң жасалыуы хақында // Қарақалпақ тилиниң мәселелери: Илимий мақалалар. – Нөкис, 1999
3. Мешков О.Д. Словообразование современного английского языка. – Москва: Наука, 1976. – С. • • Ganiev, F.A. Konversiya v tatarskom yazyke. – Kazan, 1985.
4. Ганиев Ф.А. Конверсия в татарском языке. – Казань, 1985. – С. 78;
5. Гузеев Ж.М. Семантическая разработка слова в толковых словарях тюркских языков. – Нальчик,
6. Кубрякова Е.С. Деривация, транспозиция, конверсия // Вопросы языкознания. – Москва, 1974.
7. Qaraqalpaq Folklorı. 4-t. Qaraqalpaq xalıq naqıl-maqalları. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1978.